

**OTA-ONA VA FARZANDLAR O'RTASIDAGI  
NIZOLARNI KELIB CHIQISHINING PSIXOLOGIK  
OMILLARI**

*TAFU PPWK-22-03 guruh talabasi*

***Ozodtillayeva Muhlisa***

*Ilmiy rahbar: Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi*

***Xusanbayeva Ziyoda***

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada ota-ona va farzandlar o'rtasida vujudga kelayotgan kelishmovchilarning ijtimoiy-psixologik omillari tadqiqot natijalari yoritilgan. Jumladan, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarga psixologik, iqtisodiy, ijtimoiy, tarbiyaviy, gender xususiyatlari va jismoniy omillar sabab bo'lishi haqidagi ma'lumotlar hamda amaliy tavsiyalar berilgan

***Kalit so'zlar:*** Ota-ona, farzand, nizo, moslashuv, o'zaro munosabat, ijtimoiy tarbiya, suhbat, munozara, rag'bat, xarakter.

***Аннотация:*** В данной статье освещены результаты исследования социально-психологических факторов разногласий между родителями и детьми. В частности, даются информация и практические рекомендации о причинах конфликтов между родителями и детьми, обусловленных психологическими, экономическими, социальными, образовательными, гендерными особенностями и физическими факторами.

***Ключевые слова:*** родитель, ребенок, конфликт, взаимодействие, социальное воспитание, разговор, обсуждение, стимул, характер.

***Annotation:*** In this article, the results of the study of the socio-psychological factors of disagreements between parents and children are highlighted. In particular, information and practical recommendations are given on the causes of conflicts between parents and children due to psychological, economic, social, educational, gender characteristics and physical factors.

**Keywords:** *parent, child, conflict, reciprocity, social upbringing, conversation, discussion, incentive, character.*

Oilaning tinchligi, farovonligi yurtning porloq kelajagining poydevoridir. Yurtimizda oilaning mustahkamligiga uning osoyishtaligiga katta e'tibor berilmoqda. Oila jamiyatning kichik ammo juda muhim yacheykasi bo'lib, uning tinchligini taminlash to'g'risida yurtimizda qator chora tadbirlar ko'rilmogda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida oila to'g'risida quyidagi fikirlarni bildiradi: "bolaning tarbiyasi va uning yetuk shaxs sifatida shakillanishida oilaning roli nihoyatda kattadir. Oilada bolaning aqliy faoliyati kamol topadi, dunyoqarashi, tafakkuri shakillanadi, kishilarga nisbatan mehr–oqibat hissi tarbiyalanadi. bolaning bilimi, qobiliyati va malakalarining shakillanishi aynan oila va oilaviy tarbiyaga bog'liqdir". Ushbu fikirlar jamiyatimizda farzand tarbiyasida oilaning o'rni naqadar muhim ekanligidan dalolat beradi. Darhaqiqat bola tarbiyasida, uning yetuk bo'lib kamol topishida oilaning, ota-onaning o'rni benihoyat kattadir. Oila va farzand tarbiyasi va oilaviy munosabatlar to'g'risida ko'plab buyuk allomalarimiz o'z fikirlarini bildirib o'tishgan. Abu Nasr Farobiy o'z asarlarida keltirilishicha, oila a'zolarining bir-biriga samimiy munosabatlari, mehr-u oqibatlari shu oiladagi odamlarning baxtini tashkil qiladi. Ota–ona va farzand o'rtasida munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilmasligi, farzandning ota-onasini aldashiga, uzoqlashishiga oilb kelishi mumkin. Ular o'rtasidagi munosabatlarning iliq va samimiyligi farzand tarbiyasida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ota-ona va farzand o'rtasidagi nizolarning aksariyati ularning xohish–istaklarining mos tushmasligidan kelib chiqishi mumkin. Ota-onaning bola bilan ko'proq suhbatashishi va fikir almashishi, tinglashi ular o'rtasidagi ko'pgina konfliktlarning kelib chiqishining oldini oladi.

Psixolog olim V.I.Selivanov oilada shaxsni shakillantrish jarayonini o'rganib, baxtli bolalik-bu oiladagi quvonchni, xamjixatlikni hamda ota-onalarning bolalariga g'amxo'rligining samarasidir degan xulosaga keladi.

Oiladagi munosabatlarning buzulishi, bolaning psixalogik rivojlanishiga o'z tasirini o'tkazadi. Bolaning sog'lom oila muhitda ulg'ayishi va munosabatlardagi erkinlik uning kelajakda jamiyatga tezroq ishtimoiylashishiga va yaxshi moslashishiga yordam beradi. Shu o'rinda takidlash joizki oilaviy sog'lom muhitni shakillantirish, oilaviy iliq munosabatlarni yaratishda ayol kishining o'zni katta hisoblanadi. G'arb mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqotlarda ko'pchilik ayollarda onalik ustanovkasining yo'qligi, oilaviy munosabatlarning buzulishiga, bola tarbiyasini og'ishishiga va ajrimlarga sabab sifatida ko'rsatilgan. Ota-ona farzandini yaxshi tarbiyalash uchun avvalo o'zlari tarbiyalangan bo'lishi lozim.

Farzandingizga aloqador har qanday qaror qabul qilinishida farzandingiz ishtirokini ta'minlang. Mayli, siz u tanlayotgan yo'lni ma'qullamassiz va o'z bilganingizcha ish tutmoqchidirsiz.

Ammo buni majburlash yo'li bilan emas, tanlov berish yo'li bilan qiling.

Farzadningiz uning ham xohish- istaklari inobatga olinayotganini va uning shaxsiyatiga hurmat ko'rsatilayotganini bilsin. Navbatdagi sirni eshitish ba'zi ota-onalarga yoqmasligi mumkin. Ammo odilona o'ylab ko'rilsa, buning isboti ko'p.

Ota-onalar bolalariga tazyiq o'tkazishlariga bir sabab – ular o'zlarini kechira olmasliklaridir. Ular yoshlikda o'zlari yo'l qo'ygan xatolar uchun o'zlarini kechira olamaydilar va farzandlari xuddi o'sha xatolarga yo'l qo'yishlarining oldini olishga zo'r berib harakat qiladilar. Bu o'z-o'zini kechira olmay, aybdorlik tuyg'usi bilan yashashning yana bir salbiy oqibati.

Shunday ekan, o'z xatolaringiz soyasi farzandingiz farovonligiga tushishigayo'l qo'ymang. Unga ham xato qilishga imkon bering. Axir, sizning tajribali ota-ona bo'lishingizga ham aynan o'sha xatolar xizmat qilgan. Farzandning ota-onaga bo'lgan munosabati haqida gapirmayman – bu haqida shundoq ham juda ko'p gap aytilgan. Ammo bir narsa barchamizning yodimizda bo'lishi zarur– ota-ona bizga eng katta va beg'ubor mehr bera oladigan dunyodagi yagona odamlar. Hech kim (hatto o'zimiz ham) bizni ota-

onamizchalik seva olmaydi. Shu haqiqatning o'zi ota-onaga qanday munosabatda bo'lish joizligi haqida ko'p narsani aytadi. Turmush o'rtoqlar Umr yo'ldoshlar o'rtasidagi munosabatlar ham imkoni boricha shartsiz bo'lishi lozim. Tobelik munosabatiga asoslangan turmushlardagi muammolar haqida barchamiz yaxshi bilamiz (kinochilarimiz buni har tomondan tasvirlab ulgurishgan). Ammo, nimagadir, bunday hollarda har doim bir tomon jabr ko'rsatuvchi (aybdor) boshqa tomon jabrlanuvchi (qurbon) sifatida ko'rsatiladi.

Nizolar:

1. Konstruktiv (biriktiruvchi)
2. Destruktiv (ajratuvchi)

Nizolar yuzaga kelishiga asos bo'lgan muammolar bu muammolarning xal etilishi, kechishi, ishtirokchilari, oqibatlar va boshqalarning xarakteriga ko'ra, bir- biridan farqlanadi

Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi nizolarga quyidagilar zamin bo'lib xizmat qiladi:

1. Dunyoqarashlar o'rtasidagi mavjud färgning hisobga olinmasligi.
2. Yoshlarning bo'sh vaqtini mustaqil tashkil etishi, do'stlar tanlashdagi mustaqilligi, xissiyot sohasidagi mustaqilligi, modaga, bugungi kun talabiga mos kiyinishi, kasb tanlashdagi mustaqilligi, unr yo'ldoshi tanlashda mustaqillik uchun ota-onalari bilan ba'zan kurash olib borishning xush kelmasligi.
3. Ota-onalarning Jaraiyat normalariga mos kelmaydigan xatti-harakatlari,
4. Ba'zi bolalarni mehnat qilishga o'rgatilmaganligi va buning oqibatida yengil-yelpi hayot kechirishga o'rganib qolishi
5. Ayrim yoshlarning farzandlik bhachini natib qo'yishi
6. Ota-onalarning psixologik-pedagogik bilim saviyalari yetarili darajada emasligi natijasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar.

**Adabiyotlar ro'yxati**

1. Ibaydullayeva U.R. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori diss. - T.: 2022.
2. Kadirova A.T. O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'ricida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixologiya fanlari nomzodi diss. – T.: 2007. – 24 b.
3. Akramova F.A. Oilada sog'lom psixologik muhitni tarkib toptirishning ijtimoiy-psixologik asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: 2014. – 185 b.
4. Rasulova F.F. O'smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari: Avtoref. diss. ps. fan (PhD): 19.00.06 – T.: 2018. – 48 b.
5. Karimova V. M. "Psixologiya" T.Sharq 2002y.
6. Xusanbayeva, Z. (2024). Talabalarda rahbarlik imidjini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-7.
7. Tillayeva, N. (2024). Maktab O'quvchilarining Ijtimoiy Moslashuvining Psixologik Xususiyatlari. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-5.